



«ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍN INTEGRACIYASÍ»

atamasındaǵı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

PSIXIK TARAQQIYOTI ORQADA QOLGAN O'QUVCHILARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Z.Sh.Sherimbetova,

Nukus innovatsiya instituti

“Pedagogika, psixologiya va xorijiy tillar” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Maqolada o'quvchilardagi o'zlashtirmovchilik sabablari va buning ta'siri sifatida bolalardagi psixiq taraqqiyotda orqada qolgan bolalar haqida tushunchalar keltirilgan.

Kalit so'z: o'zlashtirmovchi o'quvchilar, psixik taraqqiyotdan orqada qolish, tafakkur, aqliy taraqqiyot, ta'lim.

Umumta'lim maktablarida har bir sinflarda o'zlashtirmovchi o'quvchilar albatta uchraydi. Bu o'quvchilarda o'zlashtirmovchilik sabablarini o'rganganimizda ularda psixik taraqqiyotda orqada qolish kuzatildi. Ayniqsa tafakkur faoliyatining anglanmaganligida o'quvchi masalani qanday echganligini aytib bera olmaydi, o'z xatolarini payqamaydi, u yoki bu javobni berayotganida qanday belgilarga tayanganligini ko'rsatib bera olmaydi.

Aqlning taqlidchanligi echimning ma'lum usullarini ko'chirib olishga intilishida, echimning dastlabki foydalanilgan usuli bilan chegaralanganida namoyon bo'ladi.

Z.I.Kalmikova ikkinchi tip ichida 3 turni ajratadi. Birinchi turga aqliy taraqqiyotda orqada qolishining dastlabki sababi noqulay ijtimoiy-psixologik omillarning ta'sirida nafaqat bilimlarning, balki aqlning ijobiy xislatlari shakllanishi sekinlashgan bolalar kiradi. Bog'cha davrida onalarning ular bilan shug'ullanmasligini, ularning bog'chada emas uyida tarbiyalanishi, uning shaxsiy va intellektual rivojlanishiga ta'sir qiladi. Bunday bolalar maktabda o'qishga kam tayyorlanganliklari uchun darrov o'qishda orqada qoluvchi bolalar safiga qo'shib qoladilar.

Ikkinchi turga kiruvchi bolalarda mavhum, so'z mantiq tafakkurga nisbatan ko'rgazmali tafakkur ustun turadi. Mavhum va so'z mantiq tafakkur juda oz rivojlangan bo'lib, yoshiga mos emas.

Uchinchi turga psixologik taraqqiyoti kechikkan bolalar kiradilar. Bunday bolalarda ko'rgazmali va so'z-mantiq tafakkurning quyi rivojlanganligi va markaziy nerv sistemasi taraqqiyotida ba'zi kamchiliklar ko'zga tashlanadi.

O'qishda orqada qoladigan bolalar umumta'lim maktablarida o'qiganliklari uchun o'zlarini maktab jamoasining teng huquqli a'zosi deb hisoblaydilar. Bunday o'quvchilar maktab jamoasidagi noqulay holatlarni, etishmovchiliklarni to'ldirishni



«ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍN INTEGRACIYASÍ»

atamasındaǵı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

xohlaydilar va ko‘pincha aksil ijtimoiy guruhlarga qo‘shilib, voyaga etmagan jinoyatchilar qatorini to‘ldirishadi.

O‘quvchilar o‘zlashtirmasligini bartaraf etishda V.F.Shatalovning shartli signallar bo‘yicha olib borgan tajribalari e‘tiborga loyiq. O‘qituvchi o‘quvchilarga katta bir bo‘limni o‘qib kelish vazifasini topshiradi, oldin shartli belgilar bilan tushuntirib beradi. O‘quvchilar bir-birlarini tekshiradilar. Kuchli o‘quvchilar dasturdan tashqaridagi mavzularni ham o‘qishlari mumkin. Bo‘sh o‘quvchilar eng zarur bilimlarni egallaydilar.

Psixik taraqqiyotda orqada qolgan bolalarga qulay psixologik iqlim yaratish juda muhim. Ularga engilroq topshiriqlar, yaxshilab tushuntirish, savol-javobga ko‘proq vaqt ajratish lozim. Bolaning rivojlanishida ta‘limning etakchi rolga ishonish ular bilan ishlaganda ozgina ijobiy siljishni ham payqash, o‘quvchilarni muvaffaqiyatga erishishlariga ishontirish muhim hisoblanadi.

M.M.Bezrukix, S.P.Efimova tadqiqotlarida o‘qishda qiynaladigan bolalarni quyidagi guruhlarga ajratishgan:

- A) Zaif bolalar.
- B) Asabiy bolalar.
- V) Psixik taraqqiyotda vaqtincha orqada qolgan bolalar.
- G) Chapaqay bolalar.

Bolada vujudga kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarni o‘qituvchi asosan o‘zlashtirish bilan belgilaydi. Bunda bolalar qariyb bir xil baholanadi: a‘lochi – demak u yaxshi o‘quvchi, ikkichi – yomon o‘quvchi. Bunday o‘quvchiga qo‘llaniladigan choralar ham bir xil. Bolaning ota-onasi maktabga chaqirilib, o‘g‘li (yoki qizi) bilan shug‘ullanmayotgani, yomon tarbiyalanayotganligi haqida ma‘lum qilinadi. Yoki o‘qituvchi oqibati haqida o‘ylamasdan o‘quvchini butun sinf oldida baqirib haqoratlaydi, izza qiladi. Ko‘pchilik tajribali o‘qituvchilar o‘quvchilar o‘zlashtirmasligini uning dangasaligi, tarbiyasizligi, ishyoqmasligi bilan bog‘laydilar. Muallifning fikricha, ko‘p kasal bo‘luvchi zaif bolalar organizmi darmonsizligi tufayli ishga va o‘qishga qobiliyatlari kamayadi. Bunday bolalar bilan individual shug‘ullanmasa, tez orada ular o‘zlashtirmovchi o‘quvchilar qatoriga kiradilar.

Biron narsadan qattiq qo‘rqan bolalarda asabiylashish alomatlari -duduqlanish, enurez va boshqalar paydo bo‘ladi. Bunday bolalar bilan ham o‘qituvchi maxsus shug‘ullanmasa, o‘zlashtirmovchi o‘quvchilarning soni ortishi mumkin.

O‘quvchilar o‘zlashtirmasligining sabablaridan biri bolaning psixik taraqqiyotdan vaqtincha orqada qolishi bilan ko‘pincha bog‘liq. Turli mutaxassislar



«ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍN INTEGRACIYASÍ»

atamasındaǵı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlardan ma’lum bo‘lishicha, o‘zlashtirmovchilik 50% psixik taraqqiyotda orqada qolish bilan, 24% xulq-atvorning buzilishi, 4% aqliy etishmaslik va nutqning rivojlanmaganligi bilan bog‘liq.

Psixik taraqqiyotda vaqtincha orqada qolish bolada turli sabablarga ko‘ra vujudga kelishi mumkin. Ko‘pincha bu bolaning ona qornida va tug‘ilishi vaqtidagi o‘zgarishlar (patologiya), irsiyat, ilk bolalik davrida bolaning jarohatlanishi va og‘ir kasalliklarga chalinishi sabab bo‘lishi mumkin. Bunday omillarning markaziy nerv sistemasiga noqulay ta’sir etishi natijasida eng nozik insoniy funktsiyalarning taraqqiyoti to‘xtaydi. Shu bilan birga bola tarbiyalanayotgan ijtimoiy muhitning roli ham muhim. Bolaga onaning erkalashlari etishmasligi, unga etarlicha e’tibor bermaslik, unga iliq munosabatda bo‘lmaslik, unga yaxshi qaramaslik, vaqt ajratmaslik kabi omillar muhim rol’ o‘ynaydi. Bola qanchalik kichik bo‘lsa, bu omillar shunchalik ahamiyatlidir. Xuddi shu sabablarga ko‘ra mehribonlik uylarida, kunu-tun ishlaydigan bog‘cha va yaslilarda tarbiyalanayotgan bolalarda psixik taraqqiyotda orqada qolish uchraydi.


O‘qituvchilarning o‘zlashtirmovchilikni yo‘qotish bo‘yicha qo‘llaydigan vositalari - bu qo‘shimcha mashg‘ulotlardir. Lekin bu vosita orqali ko‘pincha maqsadga erishib bo‘lmaydi. Ayniqsa, bu vosita o‘zlashtirmovchi o‘quvchilarning birinchi tipi uchun mahsuldor hisoblanmaydi. Ularning tafakkur faoliyati xususiyatlarini o‘zgartirishga yo‘naltirilgan maxsus ishlar olib borilishi zarur.

Qo‘shimcha darslar ikkinchi tipga kiradigan o‘quvchilar uchun ham mahsuldor hisoblanmaydi, chunki bu holda o‘qishga nisbatan ahloqiy ustanovkalarini o‘zgartirishlari zarur. Qo‘shimcha darslar teskari natija berishi o‘qishga nisbatan salbiy munosabatini kuchaytirishi mumkin.

Ko‘pincha o‘qituvchilar sababini tushunmasdan o‘zlashtirmovchi o‘quvchilarni “qobiliyatsizlar”, “aqli etishmaydiganlar” safiga kiritib qo‘yadilar. Tez orada o‘qituvchilar o‘zlashtirmovchi o‘quvchilarga e’tibor bermay qo‘yadilar, sinfda qolmasliklari uchun “uch” baho qo‘yadilar.

Keyinchalik bunday o‘quvchilarda maktabga nisbatan salbiy munosabat rivojlanadi, shaxs xarakteri patologik shakllanadi. Psixik taraqqiyotda vaqtincha orqada qoladigan bolalarga individual ishlashning mahsuldor usullari qo‘llanilsa, umumta’lim maktabida bema’lol o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar qatorida bo‘ladilar.

Muammoning pedagogik jihatlari yoritilgan didaktik ishlarda o‘quvchi qanday o‘qishi, o‘qish jarayonida uning rivojlanish xususiyatlari qanday, ular duch keladigan



«ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍN INTEGRACIYASÍ»

atamasındaǵı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

qiyinchiliklarni qanday engadi, pedagogik ta'sirlar natijasida uning psixikasida qanday o'zgarishlar ro'y beradi kabi savollarga javob berilmaydi.

Psixologlar o'quv jarayonida namoyon bo'ladigan o'zlashtirmovchi o'quvchilarning shaxs xususiyatlariga, ular o'quv faoliyatining o'ziga xosliklarini aniqlashga e'tibor qaratdilar. Bunday izlanishlarga misol sifatida P.P.Blonskiy, L.S.Slavina, N.A.Menchinskaya, Z.I.Kalmikova, N.S.Korsakovalarning tadqiqotlarini kiritish mumkin. Ko'pchilik horijiy mamlakatlar pedagoglari ishlarida har bir o'quvchiga yagona bilimlar minimumini berish zaruriyatidan kelib chiqmaydilar. Ular hukmron sinf buyurtmasini ixtiyoriy yoki ixtiyorsiz ravishda bajarib, test diagnostikasidan bir tomonlama foydalanib, mehnatkashlarning farzandlari eng quyi ta'limni olishlari zarur deb hisoblaydilar. Shu bilan birga taraqqiyparvar horijiy pedagoglar ishlarida o'quvchilar o'zlashtirishini oshirish muammosiga bunday yondashuvga tanqidni uchratish mumkin. Yuqorida keltirilgan adabiyotlar tahlilidan o'zlashtirmovchilikni bartaraf etishning didaktik, tarbiyaviy, psixologik, fiziologik, ijtimoiy jihatlarini birgalikda qaraydigan ishlar juda kamligi ko'rinib turibdi.

Yuqorida keltirilgan adabiyotlar tahlilidan kelib chiqib quyidagi jihatlarni ko'rsatib o'tish mumkin:

- 1) ommaviy maktab o'quvchilari o'zlashtirmasligi sabablarini diagnostika qiladigan usullarni ishlab chiqish;
- 2) o'quvchilar o'zlashtirmasligiga sabab bo'ladigan sub'ektiv va ob'ektiv omillarni ishlab chiqish;
- 3) o'zlashtirmovchilikni bartaraf etish bo'yicha maktab, oila va jamoatchilik hamkorligi bo'yicha ishlar tizimini ishlab chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Krayg G. Nesposobnost k ucheniyu. V kn.: Psixologiya razvitiya. – SPb.:Piter. 2002. S. 497.
2. Nishanova Z.T. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlar majmui. Bu kitobda: O'zlashtira olmaydigan boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan olib boriladigan psixologik - korreksion ishlar. -T.: O'zbekiston respublkasi davlat matbuot qo'mitasi. 1996. - B.16-27.
3. Psixoterapiya detey i podrostkov. Pod.red. F.Kendalla. SPb.: Piter. 2002. –S.106.
4. Sunnatova R.I. Kak pomoch detyam uchitsya. // Boshlang'ich talim. 1999. №3. - B.40-41.